**Byudjetdan mablag` oluvchi muassasalarni maxsulot, jixozlar, moddiy tovar boyliklari bilan ta'minlash va xizmat ko`rsatish bo`yicha**

**ShARTNOMA № 1**

2022 yil 17 январ                                                    Dang`ara tumani.

Dang`ara pochta aloka bog`lamasi boshlig`i Z.Rasulov (xo`jalik yurituvchi sub'yekt, F.I.Sh) bundan buyon bir tomondan «Bajaruvchi» deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan Dangara tuman DSL boshligi A.Shamsiddinova
(xo`jalik yurituvchi sub'yekt, F.I.Sh)
nizomi asosida ish yurituvchi bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritiladi va quyidagilar xaqida ushbu shartnoma tuzildi.

1. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» chi «Buyurtmachi» ning buyurtmasiga asosan **2022**- yil marka va konvertlar bo`yicha tegishli tartibda xizmat ko`rsatadi, «Buyurtmachi» esa ko`rsatilgan xizmat uchun to`lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

2. ShARTNOMA NARXI

| № | Maxsulot nomi | O`lchov birligi | Miqdori | Narxi | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Marka | dona | 720 | 3800 | 2736000 |
| 2 | Konvert pechatli | dona | 720 | 350 | 252000 |
| 3 | | | | | |
| 4 | | | | | |
| 5 | | | | | |
| 6 | | | | | |
| 7 | | | | | |
| 8 | | | | | |
| 9 | | | | | |
| 10 | | | | | |
| 11 | | | | | |
| | Jami | | | | 2988000 |

2988000 (ikki million to'qqiz yuz sakson sakkiz ming)
(raqamlar, yezuvlar bilan)

3.XISOB-KITOB QILISh TARTIBI

3.1. «Buyurtmachi» 2022 yil marka va konvertlar uchun oldindan, ko`rsatilgan xizmatning 100 foizi miqdorida pul mablag`ini o`tkazish yuli bilan to`lovni amalga oshiradi. «Bajaruvchi» tegishli bo`lgan xizmat turini ko`rsatadi

4. XIZMAT KO`RSATIB BERISH MUDDATI.

4.1. «Bajaruvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so`ng marka va konvertlar uchun bir oy ichida belgilangan tartibda «Buyurtmachi»ga yetkazib beradi.

5. XIZMAT SIFATI

5.1. Yetkazib berilayetgan xizmat sifati belgilangan standartlarga (muvofiqlik sertifikati), ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar va «Buyurtmachi»ning talablariga mos kelishi shart.

6. TOMONLARNING MAJBURIYaTLARI

6.1. «Bajaruvchi» majburiyatlari:
Shartnomada ko`rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o`z vaqtida «Buyurtmachi» ga xizmatni ko`rsatish;
Shartnomaning shartlari «Buyurtmachi» tomonidan buzilganda ko`rsatilayotgan xizmatni to`xtatib qo`yish xuquqiga ega; «Bajaruvchi» yetkaziladigan xizmatlar uchun xisob-varaklarda to`liq va aniq nomini, xizmat turi, kategoriyasini va boshka ko`rsatkichlarini ko`rsatishi shart. Shuningdek, xisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to`liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

6.2. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari:
«Buyurtmachi» shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to`lovlarni amalga oshirish, xizmatlarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan bo`lishi tartibiga, turiga, sifatiga qarab o`z vaqtida xizmatlarni qabul qilib olishi lozim.
Tegishli darajada sifatli bo`lmagan xizmat to`g`ri ko`rsatilgani aniqlangandan so`ng, ushbu to`g`risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu xaqida 3 kun ichida "Bajaruvchi"ni ogoxlantirish.
To`liq rasmiylashtirilmagan xamda xizmatning sifati, turi va kategoriyalari ko`rsatilmagan xisob-varaklar bo`yicha to`lovlar amalga oshirilishiga yul qo`yilmaydi.

Scanned with CamScanner

## 7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ushbu shartnoma bo`yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O`zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.
7.2. «Bajaruvchi» tomonidan «Buyurtmachi»ga xizmatlarni belgilangan muddatlarda ko`rsata olmasa, kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5 % miqdorida «Buyurtmachi»ga penya to`laydi, lekin penya miqdori ko`rsatilmagan xizmat qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.
7.3. Shartnoma talablarida ko`rsatilgan belgilangan sifatlardagi xamda buyurtmadagi xizmat yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu xizmat kiymatining 20 % mikdorida jarima to`lashiga sabab bo`ladi.
7.4. «Buyurtmachi» tomonidan ko`rsatilgan xizmatlar uchun to`lovlar o`z vaqtida amalga oshirilmagan takdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4 % miqdorida «Bajaruvchi»ga penya to`laydi, bunda penyaning umumiy mikdori kechiktirilgan summaning 50 % dan ortiq bo`lmasligi lozim.

## 8. FORS-MAJOR XOLATLARI

8.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o`ziga bog`lik bo`lmagan sabablarga ko`ra va yengib bo`lmas kuch mavjud bo`lgan taqdirda ushbu shartnomada ko`rsatilgan majburiyatlari bo`yicha javobgar emas. Favqulotda turdagi xolatlarga: suv toshqini, yong`in, yer qimirlashi va boshka tabiiy ofatlar, shuningdek xarbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlar tegishlidir.
8.2. Taraflar ushbu shartnomada ko`rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to`g`risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.
8.3. Agar bartaraf qilib bo`lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogoxlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo`shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

## 9. ShARTNOMANI O`ZGARTIRISh VA BEKOR QILISh TARTIBI.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o`zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo`ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O`zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo xo`jalik sudi orqali O`zbekistan Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal qilinadi.
9.2. Shartnoma taraflarning o`zaro kelishuviga asosan yoki O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to`lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.
9.3. Ushbu shartnoma 2022 yil 17.01 dan 2022 yil 31 dekabrgacha
9.4. Shartnoma 2- nusxada tuziladi.

taraflar tomonidan imzolanib, g`aznachilik boshqarmasi (bo`limi)da belgilangan tartibda ro`yxatdan o`tkazilganidan so`ng qonuniy kuchga kiradi.

## 10.KO`ShIMChA ShARTLAR.

______________________________

## 11.TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

**" Bajaruvchi "**

**Dang`ara Pochta Alokasi Bog`lamasi**
(tovar yetkazib beruvchining nomi)
**Manzil: Dang`ara tumani Mukumiy 8 uy**

**Tel/faks 572-15-55**
**x/r 20 210 000 900 155 266 264**

**Bank nomi: Aloqabank Toshkent**

**MFO: 00401 INN 200 833 833**
**OKONX 52100**

Raxbar: ________ Z.Rasulov

Bosh xisobchi: ________ J.Mamatkulov
(imzo)

M.O.

**"Buyurtmachi"**

Dang'ara tuman DSK
(byudjetdan mablag` oluvchining nomi)
Manzil: Муқимий кўчаси 19 уй
______________________________
Tel/faks 57-21-289
sh/x 100010860302367011332093001
______________________________
byudjetdan mablag` oluvchi
STIR 200165074

OKONX 97150
G`aznachilik bo`linmasi nomi

G`azna x/r ________
Bankning nomi Марказий Банк
MFO 00014
G`aznachilik bo`linmasi STIR ________
A. Xamidolimov
Raxbar: ________
(imzo)

Bosh xisobchi: ________
(imzo)
M.O.

Юрист ________ О. Холматов

Scanned with CamScanner